

## ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA HAZRAT ABU BAKR SIDDIQ TAVSIFI

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakultetini 2-bosqich 22.94-guruh talabasi*  
**Yusupova Saidaxon Ahadjon qizi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi to'rt xalifa - chohoryorlardan birinchisi Abu Bakr Siddiqning ta'rifi hamda ular hayotida aks etgan muayyan voqea, hikoyalar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** chohoryorlar, xalifa, sahoba, Qur'oni Karim, "Guliston", "Bo'ston", "Mantiq ut-tayr", Ibn Sino "Tayr qissasi" ("Qushlar qissasi"), raddiya, Abu Homid G'azzoliy "Risalat ut-tayr" ("Qush risolasi"), tolib qushlar, Hudhud, Simurg', ramziy-alligoriq, muqaddima, munojot, Abu Bakr Siddiqning sadoqati, Umar Faruqning adolati, Usmon Zinnuraynning halimligi va hayosi, Ali roziyallohu anhuning shijoati, "sodiq-u siddiq", xazina, ajdaho, hadis, hikoyat, sahovat, g'or, ilon, islom farzlari

Alisher Navoiyning barcha asarlari tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning falsafiy ruhda yozilgan asarlari ko'p, u asarlar insonning ruhiga katta ta'sir ko'rsatadi, insonni o'ylashga majbur etadi. Shu kabi asarlaridan biri "Lison ut-tayr" dostonidir. Ushbu doston Navoiy umrining so'nggi damlarida, 1499-yilda yozilgan yirik dostonidir. Hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. Dostonning yozilishi sababi haqidagi bobda, Navoiy ushbu sababni quyidagicha izohlaydi: Navoiy bolaligida ustozi unga Qur'oni Karim suralarini yodladgan. Suralarni yodlatish davomida zehni o'tkir bo'lishi uchun "Guliston", "Bo'ston", "Mantiq ut-tayr" kabi kitoblarni ham o'qitgan. Ularning ichidan ayniqsa, "Mantiq ut-tayr" yosh Alisherga qattiq ta'sir qiladi. Uni xayolchan va odamovi qilib qo'yadi. Navoiyning ota-onasi bundan xavotirga tushib, u kitobni yashirib qo'yishadi, lekin u paytda Navoiy bu kitobni deyarli to'liq yodlab bo'lgan bo'ladi. Bu kitob allaqachon shoirning sevimli kitobiga ayblanib ulgurgan edi, shu sababli uni yoddan chiqarmaslik uchun ko'nglida yashirincha takrorlab yurishga odatlanadi. Navoiy "Mantiq ut-tayr" ga shu qadar muhabbat qo'yadiki, bu muhabbat uning doimiy hamrohiga aylanadi. Vanihoyat, shoir yoshi 60 ga yetganda, o'zining bolalikdagi orzusini amalga oshirishga qaror qildi.

Sharq mumtoz adabiyotida qushlar munozarasi bilan bog'liq ilk asar Ibn Sinoning "Tayr qissasi" ("Qushlar qissasi") risolasi hisoblanadi. Abu Homid G'azzoliy bu asarga raddiya tarzida "Risalat ut-tayr" ("Qush risolasi") asarini yozgan.

Ushbu mavzuda yozilgan yozma adabiyot namunasi sifatida Fahriddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari hisoblanadi. Ushbu qissa "Mantiq ut-tayr" asari orqali yaxlit va mukammal syujetga ega bo'lgan badiiy doston holiga keltiradi. Unda syujetni qayta ishlash bilan birgalikda asarga tolib qushlar va yetakchi qush Hudhud obrazini kiritadi, qushlar podshohining nomini Simurg' qilib o'zgartiradi hamda yana ko'p hikoyatlar qo'shadi. Shu sababli asar hikoyat ichida hikoyat yo'nalishidagi ramziy-alligoriq doston hisoblanadi.

"Lison ut-tayr" dostoni murakkab asar hisoblanadi. Ushbu dostonida muallif asardagi majoziy obrazlar hamda ularning ramzli sarguzashtlari vositasida obyektiv borliq va ilohiyot

haqidagi qarashlarini aytib o'tadi. Shu bilan bir qatorda asarda real hayot voqealari, insonlarning xatti-harakatlari, xarakteridagi ijobiy va salbiy jihatlar ham yoritilgan.

Doston muqaddimaviy boblar bilan boshlangan. Muqaddima 13 bobdan tashkil topgan bo'lib, 1-bob Allohga hamd bilan boshlanadi. Dostonning 2-bobi munojotni o'z ichiga oladi. 3-4- boblari payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom madhlari hamda me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlanadi.

Dostonning 5-12-boblari to'rt xalifa - chohoryorlar tavsifiga bag'ishlangan. Navoiy bu boblarda avval har bir sahobaga ta'rif beradi va ularga xos muhim xususiyatlari, muhim lavhalari bilan o'quvchini tanishtiradi. So'ngra chohoryorlar hayotidan ma'lum bir voqea aks etgan hikoyatni keltiradi. Muallif sahobalarning quyidagi sifatlarini e'tirof etib ketadi: Abu Bakr Siddiqning sadoqati, Umar Faruqning adolati, Usmon Zinnuraynning halimligi va hayosi, Ali roziyallohu anhuning shijoati. Albatta bu insonlar qalbimizdagi faxr tuyg'usini mustahkamlaydi. Menimcha, ularni o'zimizga o'rnak deb bilsak, maqsada muvofiq bo'ladi.

5-bob Abu Bakr Siddiqning madhiga bag'ishlangan. Navoiy bu zotni "sodiq-u siddiq" deb ataydi, ta'rif berish jarayonida tashbeh san'atidan foydalanadi, ya'ni payg'ambar Rasuli Akramni g'or ichidagi xazinaga, Abu Bakr (r.a)ni esa xazinani qo'riqlab yotgan ajdahoga o'xshatadi:

Sodiq-u siddiq-u hamrozi oning,  
Har yomon-u yaxshida damsozi oning...  
Ganjkim g'or ichra pinhonlik qilib,  
Ajdahodek ul nigohbonlik qilib.

Hadislarda keltirilishicha, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. g'orga yashiringanlarida Abu Bakr Siddiq ularni muhofazalarini o'z bo'yinlariga olganlar, qo'riqlaganlar. G'orda biron ilon chiqib qolib, payg'ambarimizni chaqib olmasin deb, barcha teshiklarni berkitganlar. Payg'ambarimiz Abu Bakr Siddiqning oyoqlariga boshlarini qo'yib uxlab qolganlarida, qaysidir teshikdan ilon chiqib sahobaning oyog'ini chaqadi, lekin sahoba Rasulullohga ozor bermasin, oromlari buzilmasin deya og'riqqa jim chidab turadi, lekin og'riq kuchidan Abu Bakrning ko'zlaridan yosh oqadi hamda u yosh payg'ambarimizning yuzlariga tushadi va shundan so'ng payg'ambarimiz uyg'onib ketadilar. Navoiy Abu Bakr Siddiqqa sodiq-u siddiq deb atashi, unga sifat berayotganda Abu Bakr Siddiqning sadoqati deb alohida e'tirof etib ketishiga yuqoridagi voqea yaqqol misol bo'ladi.

Asarda sahobani payg'ambarimizdan keyin xalifa imom bo'lib qolganlarini go'yo quyosh ketib, o'rniga oy qolganligiga nisbat beriladi:

O'rnig'a oni rasul aylab imom,  
Oy bo'lib xurshidg'a doim nishon.

Asarning 6-bobi Hazrat Abu Bakr Siddiq haqidagi hikoyatdan iborat. Hikoyatda shunday deyiladi, sahoba xalifalikka chiqqach, dindan qaytgan bir guruh odamlar, islom farzlaridan biri bo'lgan zakotni bekor qilishni so'rashadilar. Shunda xalifa g'azab bilan: "Payg'ambar qonunida biror ip miqdoricha narsani ham o'zgartish mumkin emas. Kimki bunga qarshi bosh ko'tarsa, qilich va o'qdir" deb aytadilar. Bular haqida Sh. Sirojiddinovning Navoiy haqidagi kitobida ham ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Darhaqiqat, Abu Bakr Siddiq islomda buyirilgan barcha amallarni bajarganlar. Abu Bakr Siddiqning sadoqatlari bilan bir qatorda ularning sahovatlarini ham alohida e'tirof etish lozim. Muslumonlikni qabul qilgan qullarni ularga azob berayotgan egalaridan sotib olib, so'ng ularni ozod qilganlar, juda sahovatpesha inson bo'lganlar.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Abu Bakr Siddiq ulug' xalifa, to'rt chohoryorlardan biri, payg'ambarimizning yaqin kishilaridan, payg'ambarimizning do'stlari, islom dini birinchilardan qabul qilganlar. Islom farzlari hamda payg'ambarimiz sunnatlariga doimiy amal qilganlar. "Liston ut-tayr" dostonining 5-6-boblari shunday ulug' insonga bag'ishlangan. Biz bunday dindoshimiz, sahobamiz bo'lganliklari uchun ko'ksimizda doimo faxr tuyg'usi bo'ladi. Payg'ambarimiz davrlarida yashagan ko'plab sahobalar singari Abu Bakr Siddiq ham o'rnak olishga arziydigan insondir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Navoiyshunoslik Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova
2. Alisher Navoiy A. Qayumov
3. Navoiyga qaytish Ibrohim Haqqul
4. Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati